

XORAZM: QO'RQUT, ONAQUTI VA KECHIRMAS OTA

Davronbek Oripov,

*Renessans ta'lim universiteti dotsent v.v.b
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),*

Orcid raqam: 0009-0003-0025-7287

UDK: 82-131: 398.5

E-mail: bekdavr@mail.ru

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18052347>

Annotatsiya. *Dunyodagi eng qadimgi sivilizatsiyalardan biri bo'lgan Xorazm o'zida bir necha ming yillik sir-sinoatlarni jamlagani bilan ahamiyatlidir. Ushbu maqola orqali. Xorazm tuproqlarida Qo'rqut ota, Onaquti va Kechirmas ota toponimlari birlashishi, uzviy birlik hosil qilishi tadqiq qilinadi.*

Mazkur maqolada Qo'rqut ota va Kechirmas otaga oid afsonalar, o'g'uzlar tarixi, "Kitobi Dadam Qo'rqud" eposining turkiy xalqlar tarixida tutgan o'rni haqida yangi fikrlar o'rta tashlanadi. Va baholi qudrat, ilmiy asoslanadi.

Qo'rqut ota shaxsiyati qadimgi manbalar, tarixiy solnomalar, bizgacha yetib kelgan asarlar, zamondosh tadqiqotchilar izlanishlari asosida tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: *Dada Qo'rqud (Qo'rqut ota), "Kitobi Dadam Qo'rqud", Xorazm, Onaquti, Kechirmas ota, Beruniy, "Avesto", toponim.*

Abstract. *Khorezm, one of the oldest civilizations in the world, is notable for the fact that it contains several millennia of mysteries. Through this article, in the lands of Khorezm, the toponyms of Deda Korkut, Onakuti and Kechirmas Ata merge to form a single whole. One of the oldest civilizations in the world, is notable for the fact that it contains several millennia of mysteries.*

This article presents new ideas about the myths of Deda Korkut and Kechirmas ata, about the history of the Oghuz, about the role of the epic "The Book of my Deda Korkut" in the history of the Turkic peoples. And the estimated capacity is scientifically based. The personality of Deda Korkut was investigated on the basis of ancient sources, historical chronicles, extant works, and research by modern researchers.

Key words: *Deda Korkut, "The Book of my Deda Korkut", Khorezm, Anakuti, Kechirmas Ata, Beruni, "Avesta", toponym.*

Аннотация. *Хорезм, одна из древнейших цивилизаций в мире, примечательна тем, что в ней сосредоточено несколько тысячелетий загадок. Через эту статью на землях Хорезма топонимы Деда Коркуда, Онакути и Кечирмас ата сливаются, образуя единое целое. Одна из древнейших цивилизаций в мире, примечательна тем, что в ней сосредоточено несколько тысячелетий загадок.*

В данной статье излагаются новые идеи о мифах о Деда Коркуда и Кечирмас ата об истории огузов, о роли эпоса "Книга моего Деда Коркуда" в истории тюркских народов. И оценочная мощность, научно обоснованная.

Личность Деда Коркуда исследовалась на основе древних источников, исторических хроник, дошедших до нас произведений, исследований современных исследователей.

Ключевые слова: *Деда Коркуд, "Книга моего Деда Коркуда", Хорезм, Анакути, Кечирмас ата, Беруни, "Авеста", топоним.*

Kirish. *Xorazm haqida eng dastlabki eslatma Doro I ning Behistun yozuvida o'z aksini topgan bo'lib, ushbu yozuv tarjimada "Quyosh mamlakati" degan ma'noni anglatar ekan. Zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto"da – *Xvayrizem* va *Qayrizao* istilohlari qayd etilib, Xorazm xudojo'ylar tomonidan yaratilgan birinchi va eng yaxshi davlatlardan biri ekanligi aytiladi.*

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot tarixiy-qiyosiy, folkloristik va manbashunoslik metodlari asosida olib borildi. Qo‘rqut ota, Onaquti va Kechirmas ota toponimlari etimologik hamda toponimik jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, og‘zaki rivoyatlar va yozma manbalar qiyosiy o‘rganilib, umumlashtirish metodi asosida ilmiy xulosalar chiqarildi.

Adabiyotlar tahlili. Qo‘rqut ota va “Kitobi Dadam Qo‘rqud” eposi turkiy xalqlar adabiy merosida muhim o‘rin tutadi. Mahmud Koshg‘ariy, Alisher Navoiy va Abulg‘oziy Bahodirxon asarlarida Qo‘rqut ota donishmand, avliyo va urug‘ oqsoqoli sifatida tilga olinadi. A. Divayev, A. Samoylovich, S. Tolstov hamda zamonaviy tadqiqotchilar ishlari Qo‘rqut ota obrazining folklor va tarixiy qatlamlarini ochib beradi. Ushbu manbalar Xorazm hududida Qo‘rqut ota, Onaquti va Kechirmas ota toponimlarining mushtarak madaniy-tarixiy ildizlarga ega ekanini tasdiqlaydi.

Tahlil va natijalar. Onaquti qo‘lidagi zumrad tosh

Qoraqalpog‘istonning [To‘rtko‘l](#) tumanidagi Qirqqiz mavzesidagi Burgut qal‘a (milodiy VI—VIII asrlar) qadimiy yodgorliklardan biri hisoblanadi. A.Terenojkin (1937), [Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi](#) (1946), Y.Nerazik (1953-56) tomonidan o‘rganilgan ushbu qal‘a o‘zida ko‘plab sinoatlar, mo‘jizalarni jo qilgani bilan qimmatlidir. Xususan, “Saodat” jurnalida chop etilgan “Onaqutining saxovati” maqolasida Navro‘z, uning qaysi o‘lkada kelib chiqqani, ushbu qadimiy bayramning Burgut qal‘aga nechog‘lik aloqasi borligi xususida asosli javob berilgan (elib.buxdu.uz.).

Unga ko‘ra: “Dunyoga ilk alifboni bergan buyuk allomalarning vatani bo‘lgan, dunyoviy fanlarga asos solgan Xorazm yurti qadimda, hatto eramizdan avvalgi minginchi yillarda *Xvayrazam* deb atalgan. Keyingi yillarda olib borilgan arxeologik va etnografik izlanishlar Navro‘z bayrami ilk bor xuddi shu zaminda Niso (ya’ni, ayol shahri poytaxti bo‘lmish Parfiyona) yunon va Ovrupa faylasuflari asarlarida Parfiyada nishonlanganini ashyoviy topilmalar tasdiqladi.

Bunga Burgut qal‘a, Jomboq qal‘a va Niso qo‘rg‘onlarida (har uchchalasi ham Qadimiy Xorazm arxeologik yodgorliklari hisoblanadi – D.O) bunyod qilingan va shu kunlarga saqlanib qolgan *“olov uy”*lari yaqqol misol bo‘la oladi.

Jumladan, Burgut qal‘a markazida moviy gumbazli maqbara bo‘lib, uning mehrobida Onaqutining ko‘tarilgan qo‘lida Zumrad tosh bo‘lgan. Bahorgi teng kunlikda-shamsiy hisob bilan hamal oyining birinchi kuni, hozirgi taqvimimiz bo‘yicha 22-martda maqbara gumbazidagi tuynukdan quyosh nuri Onaquti qo‘lidagi Zumrad toshiga tushib, sumalak pishirish uchun tayyor turgan qozonning o‘txonasiga o‘t yoqqan”, deya qayd etiladi.

Kat – hosildorlik, suv ma‘budasi shahri

Milodiy 305-yildan keyin Xorazm davlatining poytaxti Kat (Kos) shahriga ko‘chiriladi. Kot, Kat, Kas nomlari bilan mashhur bo‘lgan [Xorazmdagi](#) qadimiy [shahar](#) xarobasi hozirgi Qoraqalpog‘iston Respublikasi [Beruniy](#) shahridan 2,5 km shimolroqda

joylashgan. [Tarixiy](#) manbalarga qaraganda, Kat [xorazmiy tilida “qishloq”](#) degan ma’noni anglatgan.

1947-yilgi arxeologik qazilmalar davrida topilgan hosildorlik, suv ma’budasi *Anaxita* haykalchasi va undan bir muncha keyinroq Kat qal’adan topilgan Xorazmshoh Artavning zarb qildirgan asosiy pul birliklari hisoblanmish kumush va oltin tangalar ushbu hududning naqadar qadimiy va ko’hna markaz ekanidan dalolatdir.

Tumanda Aqchaxon, Al-Fir, Qizil, Kat qal’alari, Sulton Uvays Qoraniy, Kechirmas Bobo ziyoratgohlari, Badr ota, Eshon bobo masjidleri, Shayx Abbos Valiy jome’ masjidi, Abu Rayhon Beruniy muzey-majmuasi turizm va aholi ziyoratgohlariga aylangan.

Kitobiy eposlar

Tabiiyki, ko’chish natijasida o’g’uzlar o’zlari bilan xalq og’zaki ijodi namunalari, jumladan, epos, dostonlarini ham olib ketishadi.

Darvoqe, turkiy xalqlardan to bugungi kunga qadar ikki kitobiy epos qolgan bo’lib, ular “Kitobi Dadam Qo’rqut” va “O’g’uznoma” asarlaridir.

G’arbga qarab ko’chgan o’g’uzlar tomonidan Dada Qo’rqut, Solur Qozon, Tepako’z, O’ruz haqidagi bo’ylar o’zgarishga uchrab, ba’zi joylari unut bo’lib, ba’zilariga esa qo’shimcha voqealar kiritiladi.

Nazarimizda, Dada Qo’rqut qabri o’g’uzlar yashagan, Vatan tutgan Movarounnahr va Xorazmning shimoliy va shimoli-g’arbiy hududlari, Sirdaryoning quyi havzasi hududlarida bo’lishi kerak. Ahamiyatlisi, taxminiy u yashagan davr deya qaraladigan milodiy VIII-X asrlarda ham o’g’uzlar aynan shu yerlarda istiqomat qilishgan.

Keyinchalik o’g’uzlar ko’chib borgan tuproqlarida o’zlari avliyo, pir deb bilgan zotga ramziy qabrlar yaratgan bo’lishi ehtimoldan xoli emas. Turkiyaning Bayburt, Rossiyaning Darband, Eronning Turkmansahrosidagi qabrlar shular jumlasidan.

Qo’rqut ota

Umumturkiylar shomon, urug’ oqsoqoli, qabila sardori, homiy (shamol homiysi), donishmand, roviy, baxshi, o’zon, bahodir, avliyo, tabib, piru komil, qo’biz asoschisi, musiqachi sifatida ulug’laydigan zot Dada Qo’rqut, Qo’rqit ota, Dede Korkut, Gorkut ata, Bobo Qo’rqit kabi turli nomlar bilan ataladi.

Abubakr Divayev, Cho’qon Valixonov tomonidan qirg’iz-qozoq cho’llarida yashovchi xalqlardan yozib olingan ko’plab asotir, rivoyatlar Qo’rqut otaning turli qirralari haqida qimmatli ma’lumotlar beradi.

Muhim jihatlardan yana biri “Do’st Sulton tarixi” kitobida Qo’rqut ota baxshilar piri sifatida gavdalanadi. Shu bois, qozoqlar orasidan chiqqan atoqli kuychi-baxshilar, oqin jirovlar o’zlariga Qo’rqit Otani pir-ustoz deb bilgan. Ular aytayotgan jirlari oldidan albatta, Qo’rqit otaning nomini tilga olishni o’zlarining burchi deb bilishgan (Келимбетов, 1991: 62).

Топоним haqida farazlar

Atoqli olim Abubakr Divayev Qozonli hududidagi Xorxut toponimi bilan aloqador afsona haqida yozib qoldirgan. Unga ko'ra, Xorxutning qabri 1880-yilgacha saqlangan, keyinchalik uni Sirdaryo yuvib ketgan (Диваев, 1896: 193-194). Demak, hozirgi Qozog'iston hududiga to'g'ri keladigan mintaqalarda ko'proq **Xorxut** toponimi mashhur bo'lgan hamda shu tarzda qo'llangan.

Baloyu qazodan, turli ofatlardan qo'rqanlar, yuragiga qo'rquv tushganlar avliyodan panoh izlab borgan bo'lishlari mumkin. Har holda, Qo'rqut ota milodning VII-X asrlarida yashagan deb qarasa, u paytlari ushbu zotning avliyolik bilan birga shomon, urug' oqsoqoli, ta'birchi bo'lgani ehtimoldan xoli emas.

Qut (kut) – ilohiy kelib chiqadigan odamning hayotiy kuchi, Xudoning inoyati odamni so'nggi nafasigacha u bilan birga qoladi. Bu ruhning zamonaviy tushunchasiga yaqin, qut (ruh) o'limdan keyin boshqa dunyoga o'tadi.

E'tiborlisi, aynan shu faraz Xorazm tuproqlariga oid, otashparastlik ta'limoti, Ona quti qo'lidagi zumrad tosh va quti so'zlari ma'nosiga juda mos keladi.

Qo'rqut ota va O'zbekiston

“Kitobi Dadam Qo'rqut” eposi aniqlanib, fanga ma'lum qilinishi XIX asrning boshlari sifatida ko'rsatilsa-da, aslida, bu epos ikki daryo oralig'idagi xalqlar, jumladan, o'zbeklar turmush-tarzi, urf-odatlarini, o'y-kechinmalarini o'zida jamlagan, ular orasida mashhur bo'lgan qadimiy dostonidir.

Qoraqalpoq olimi Jalg'asbay Xoshniyazovning qayd etishicha, ulug' bobokalonimiz, buyuk qomusiy olim Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asarida **“Kobuzlug kishi”** so'zi uchraydi (Koshg'ariy, 1960: 346). Xususan, bu hozirgi tarixiy musiqiy asbob sanalgan qo'biz haqidagi dastlabki ma'lumot bo'lib, ma'nosiga ko'ra, ovulma-ovul yurib, jir (doston) aytadigan insonni bildiradi (Xoshniyazov, 2022: 5-6).

Tabiiyki, bu ma'lumot qardosh olimning nuqtayi nazari bo'lib, dastavval, uni chuqur o'rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish lozim.

Qo'rqut otaga oid dastlabki tarixiy qaydlar Hazrat Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarida uchraydi. G'azal mulkining sultoni Qo'rqut otani quyidagicha ta'riflaydi: **“Qo'rqut ato a. r. Turk ulusi arosida shuhrati andin ortug'roqdurki, shuhratqa ehtiyoji bo'lg'ay. Mashhur mundoqdurki, necha yil o'zidin burunqini, necha yil o'zidin so'nggi kelurni debdurlar. Ko'p mav'izaomiz mag'izliq so'zlari aroda bor”** (Navoiy, 2001:421).

“Nasoyim ul-muhabbat”ning 1495-yili yaratilganini inobatga olsak, Qo'rqut ota Hazrat Navoiy davrida O'rta Osiyo mintaqasida, biz yashab turgan tuproqlarda ma'lum va mashhur bo'lgani, Navoiydek zot ehtirom ko'rsatib, Qo'rqut otani avliyo sifatida bilishi, uning ushbu zaminga aslo begona emasligi, tarixiy ildizlari shu yerda ekani, tarixiy shaxs sifatida aks sado berayotganiga ishora qiladi.

Hazrat qaydlaridan so'ng ikki daryo oralig'idagi Qo'rqut otaga oid ma'lumotlar Xiva xoni Abulg'oziy Bahodirxon (1603-1664)ning “Shajarayi tarokima” asarida uchraydi. Unga

ko'ra, *"Qayi Qora xo'janing o'g'li Qo'rqut ota Salur Ankaash xo'ja va Avashbanxo'ja boshliq barcha O'g'uz eli yig'ilib, qayi xalqindin Inalyovini, podshoh ko'tardilar, vaziri Qo'rqut ota erdi, Qo'rqut ota har nimarsa tesa Inalyovi aning so'zindin chiqmas erdi. Qo'rqut otaning karomatlari ko'p (43-bet) erdi ikki yuz to'xson besh yil umr topdi, uch podshohga vazir bo'ldi...* (Abulg'oziy, 1995:26).

Samoylovich topgan marvarid

1906-yili rus akademigi A.Samoylovich Xo'jayli shahrida yashovchi Mulla Zarif ismli odamdan ko'pgina eski qo'lyozmalarni qo'lga kiritadi. Ularning ichida **"Qo'rqut Bahodur"** nomli qo'lyozma ham bo'lgan. Uning atamasi: **"Qo'rqut (qurt) bahadur va uning hayoli Xalima Qiniq podshoning qizi"** (Bu manbani tarixchi olim O.Yusupov Sobiq Ittifoq Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik institutining Leningraddagi bo'limidan topgan) deb atalgan (Палымбетов, 2021:545). Shuningdek, Qoraqalpog'istonda XX asrning 1920-yillarigacha faoliyat yuritgan "Qoraqum iychan" madrasasida ko'pgina tabarruk kitoblar bilan birga **"Qissa Qo'rqut ota yoki Aqsan shayix"** nomli qo'lyozma ham bo'lgani qayd etiladi (Yusupov, 1993:7).

Afsuski, bugungi kunda ushbu manba va qo'lyozma haqida deyarli ma'lumotlar uchramaydi. Ularni aniqlash, ilm-fanga ma'lum qilish uchun esa Samoylovich "xazina"sini chuqur tadqiq etib, asl haqiqatni ro'yobga chiqarish lozim.

Bu ikki noyob manba hamda qo'lyozma Qo'rqut ota gezezesi ko'hna Xorazm tuproqlariga borib yetishi, qardosh qoraqalpoqlar uchun ham birdek qadrlil zot ekaniga ishora qiladi.

Ildizi qadim Xorazm tuproqlariga tutash...

"Kitabi Dadam Qo'rqud" ustida ko'plab tadqiqotlar olib borgan Safarboy Ro'zimboyev xulosalariga ko'ra, Salor Qozon haqidagi qahramonlik qo'shiqlari bir vaqtlari Xorazmda mashhur bo'lgan. Qo'shiqlarning Kavkaz, xususan, Ozarbayjonga o'tishida bu qadimiy o'lka ko'prik bo'lib xizmat qilgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas (Ro'zimboyev, 2019:125).

Folklorshunos fikricha, "Kitobi dadam Qo'rqut"ning kitobiy nusxasi Abulg'oziy davrida Xorazmdagi qissaxonlar va xalfalar repertuarida mavjud bo'lgan. Uning tarkibidagi ayrim qo'shiqlar alohida holda kuylangan ham. Keyinchalik vohada "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarining og'zaki variantlari keng darajada tarqalgan. Ushbu turkumning ustuvorlik qila boshlashi bilan Qo'rqut ota to'g'risidagi doston unutilib ketgan.

Yana shuni alohida e'tirof etish lozimki, qadimiy Xorazm tuproqlaridan, Amudaryo bo'ylaridagi hududlardan Qo'rqut ota hamda eposga oid bir nechta afsonalar yozib olingan bo'lib, ular kitobiy epos bo'ylari bilan hamohanglik kasb etadi. Masalan, 1964-yili uyushtirilgan ekspeditsiyada Safarboy Ro'zimboyev To'rtko'l tumani (Qoraqalpog'iston Respublikasi) Sho'roxon qishlog'ida yashovchi Yo'ldosh To'xtaboyevdan **"Jon shirin"**

afsonasini yozib olgan bo'lsa, 1982-yili esa Mang'it shahrida yashovchi Shukurullo Yusupovdan “Yakka ko‘z” afsonasi qog‘ozga tushiradi.

“Jon shirin” “Kitabi Dadam Qo‘rqud”ning “Devxo‘ja o‘g‘li Dali Domrul” bo‘yiga o‘xshasa, “Yakka ko‘z” “Bosotning Tepako‘zni o‘ldirishi” voqealariga juda mos keladi.

Nazarimizda, ushbu bo‘ylar Xorazm tuproqlarida shakllanib, o‘g‘uzlarning g‘arbga siljishi natijasida Saljuqiylar imperiyasi hududlarida transformatsiyaga uchragan bo‘lishi kerak.

Shuningdek, rus olimi, xorazmshunos S.Tolstovning ta’kidlashicha, kelinning kuyov bilan yakkama-yakka kurash tushib, yengilgach, turmushga chiqish odati Xorazmda yashagan shak (sak) qabilalari urf-odatiga aloqadordir (Tolstov, 1948:323). Biz ushbu odatni “Kitabi Dadam Qo‘rqud” kitobiy eposidagi “Qom Bo‘raning o‘g‘li Bamsi Bayrak dostoni” hamda ma’lum ma’noda “Qangli Bahodir o‘g‘li Qonto‘rali dostoni”da ko‘rishimiz mumkin. Bayrak hamda Bonu Chechak o‘rtasidagi kurash tasviri bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Onaquti va Qo‘rqut

Maqolalarimizdan birida Qo‘rqut toponimi haqida batafsil to‘xtalib o‘tgan edik (Oripov, 2022: 20-23).

O‘zbek tilining izohli lug‘ati beshinchi jildi da **Qo‘r-qut** so‘zi joy olgan (Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2008: 416). Ushbu so‘zga Qo‘r-qut – yig‘ib, to‘plab, g‘amlab qo‘yilgan narsa, boyluk, zaxira; qut-baraka deya ta’rif berilgan. E’tiborimizni tortgan so‘z qut-baraka bo‘lib, Qo‘rqut otaning urug‘ oqsoqoli sifatida aytgan har bir so‘zi, qilgan amali elu yurtga qut-baraka keltirgan. Mamlakat ahli boyigan. Shu boisdan, turkiylar ulug‘ zotni e’zozlab Qo‘rqut ota deya atagan bo‘lishi mumkin.

Yuqorida Xorazm tuproqlaridagi Burgut qal’adagi maqbara mehrobida Onaqutining ko‘tarilgan qo‘lida Zumrad tosh bo‘lganini qayd etgan edik.

Buni qarang-ki, Onaqutining ko‘tarilgan qo‘lidagi zumrad tosh ham elu yurtga qut-baraka, to‘kin-sochinlik keltirgan, sumalak o‘tiga o‘t yoqqan. Nazarimizda, Onaquti va Qo‘rqut nomlari deyarli bir xil ma’noni anglatmoqda. Har ikkisida ham urug‘ va qabilalar boshlig‘iga xos, qut-baraka, yil bo‘yi to‘kin-sochinlik tilangan yo‘lboshlovchilik, shomonlik, oqsoqollik xislatlari namoyon bo‘lgan. Va asosiy omil, har ikkisi ham bir hududga: Xorazmga tegishli ekanidir.

Qo‘rqut otaning qabri – O‘zbekistonda!

Xorazmda istiqomat qiluvchi yoshi ulug‘ oqsoqollar, yoshullilar yoshligida biron narsadan qo‘rqqanda, yuragini vahm bosganda Beruniy tumanidagi “Kechirmas bobo” ziyoratgohiga borishgani, nazr-niyozu ehson qilishganini ta’kidlashadi. Qizig‘i, bu qadamjo avvallari “Qo‘rqut ota”, “Qo‘rquv ota” nomlari bilan atalgan ekan.

“Kechirmas bobo” nomli ziyoratgoh Beruniy tumanida joylashgan bo‘lib, hozirgi kunda juda abgor holatda. Afsonaga ko‘ra, Kechirmas bobo qadim zamonlarda bu yerlar cho‘l bo‘lgan paytlar yashagan avliyoning ismi ekan. Kechirmas bobo agar biror kishi gunoh

qilsa, unga har xil kasalliklar yuborgan. Kasallikdan faqat xatolaridan tavba qilib shifo topib bo'lgan. Agar u inson shifo topgandan so'ng ham yana gunoh qilishda davom etsa, u yana kasal bo'lib qolgan va bundan keyin kechirim yoki shifo olmagan. Shuning uchun avliyo Kechirmas bobo nomini olgan ekan.

Shuningdek, ushbu avliyodan zurriyod qolmagan ekan. Oq toshlar haqidagi afsona ham Kechirmish boboga nisbat berilarmish. Yuqorida ushbu yerlar juda qadimdan o'g'uzlar istiqomat qilib, hozirga qadar umrguzaronlik qilayotgan tuproqlar ekanini qayd etgan edik. Mana shu sanab o'tilgan jihatlar bizda bu maqbara aslida o'g'uz-turklar ardoqlagan, tarixiy shaxs deya hisoblaydigan Qo'rqut ota maqbarasi degan fikrni ilgari surishimizga zamin yaratdi.

So'nggi Shayxulislomning nabirasi

Abdurahim hoji Aminjon o'g'li – Xorazmning so'nggi Shayxulislomi Otajon eshonning nabirasi. Shajarasi quyidagicha: Niyozmuhammad Axun, o'g'li Muhammadsharif Axun, uning o'g'li Otajon eshon, uning o'g'li Aminjon eshon, Abdurahim hoji Aminjon o'g'li. Bobokalonlari Munis tomonidan boshlanib, Ogahiy nihoyasiga yetkazgan “Firdavsul-iqbol”da nomlari keltirilgan. Tarixiy ildizi *Xulafoi Roshidinlarning* kattasi Abu Bakr Siddiq (r.a)ga borib taqaladi. Beruniy tuman bosh imom-xatibi bo'lib ishlagan. Abdurahim hoji: “Hozirda “Kechirmas ota” deya ataladigan ushbu maqbara ilgari Qo'rqut ota deb aytilgan. Ota-bobolarimizdan bu haqda ko'plab rivoyatlar eshitganman.

Aynan shu maqbara joylashgan hudud qadimgi Kat shahrining shimoliy chekkasidir. Atrofdagi qabriston juda qadimiydir. Otamning aytishicha, 80-100 yillar oldin bu yerlar Qo'rqut buva deb aytilgan, odamlar bu avliyoning qabri yonidan o'tishga qo'rqqan. Qo'rqib o'tish kerak, bo'lmasa bu yerda yotgan odam (avliyo) kechirmaydi deb xalq tilida aytilaverganidan davr o'tishi bilan Kechirmas buva, Kechirmas ota nomiga o'zgarib ketgan.

Xulosa. Tarixiy manbalarga ko'ra, Kat qal'asini suv bosgach, Xorazmshoh bu yerga juda yaqin Fil qal'aga ko'chib o'tadi. Fil qal'asi qoldiqlari ana shu saroydan meros qolgan. Hozirgi kunda ushbu ko'hna Fil qal'a sayyohlar hamda mahalliy ziyoratchilar bilan gavjum.

“Qo'rqut ota” maqbarasi “Sulton Uvays Qaroniy”, “Shayx Abbos valiy” maqbaralari bilan birgalikda qadim Xorazm tuproqlaridagi ko'hna, sanoatga boy hamda turkiy olamdagi muqaddas qadamjolar sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Navoiy. Mukammal asarlar to'plami 20 tomlik.17-tom. “Nasoyim ul muhabbat”, “FAN” nashriyoti.T, 2001.– B.421.
2. Oripov D. Korkut toponimi uzerine uc fikir. Göçebe Dergisi. Fikir, Kültür, Sanat ve Edebiyat Dergisi. Ağustos 2022 Sayı: 15.
3. Абулғозий Б. Шажарайи тарокима. – Тошкент:“Чўлпон”, 1995. – Б.26.
4. Келимбетов Н. Ежелгі дәуір әдебиеті. – Алматы: Ана ТІЛІ, 1991. В.62.
5. Китоби Дада Қўрқуд. Сафарбой Рўзимбоев таржимаси. Урганч: “ УрДУ ноширлик бўлими”, 2019. – Б.126-127.
6. Махмуд Кошғарий. “Девону луғатит турк” I том Т.; Ўзб. ССР Ф.А. нашриёти 1960, 346-бет.

7. Палымбетов К. Қўрқут ота ҳақида қорақалпоқ афсоналари. “Istiqlol davri o‘zbek tilshunosligi, adabiyotshunosligi va folklorshunosligining dolzarb masalalari” respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari, 2021. – 544-552.
8. Қорқут ата китабы. – Ташкент: “Anorbook”, 2022. – Б.5-6.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. Бешинчи жилд. – Тошкент: “ Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти”, 2008. – Б.415-416.
10. Юсупов О., Қалимбетов А. «Қарақалпақстан» баспасына 60 жыл. Қарақалпақстан, – Н.: 1993. – Б. 64
11. Диваев А. Несколько слов о могиле Хорхут-ата-ЗВО РАО, Т.Х.СП.б.1896. – С.193-194.
12. Толстов С. Древний Хорезм: Опыт ист.-археол. Исследования. Москва: 1948. С.248.
13. elib.buxdu.uz.

